

MUTAXASSISLIK DARSLARINI QIZIQARLI VA MAZMUNLI TASHKIL ETISH YO'LLARI.

*Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at makkabining "Xalq cholg'ulari" bo'limi G'ijjak
mutaxassisligi o'qituvchisi*

Husanov Anvarxon

Rubob prima mutaxassisligi o'qituvchisi

Niyozov Qurbanali.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarga xalq cholg'ularni ijro etishda san'atga muhabbat uyg'otish, cholg'u musiqasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, uning ijrochilik uslublari yoritib berilgan. Xususan, maqolada xalq cholg'ulardan g'ijjak va rubob primaning ijrochilik mahoratini oshirish bilan birga o'quvchilarga asarlar bilan ish olib borish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar:eshitish qobiliyati, xotira, rubob prima, g'ijjak, gamma, akkord, frazirofka, janr, tembr, pedagogik mahorat.

Davlatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan musiqiy ta'lif tizimini yanada takomillashtirishiga qaratilgan qarorlar hamda farmoyishlar mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasi yuksaltirish yoshlarimizning milliy madaniyatining yuksak namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va shu asosida musiqiy ta'lifni yanada rivojlantirish,bu borada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar ko'rsatilgan. Musiqa san'ati borasida amalga oshirilayotgan hayrli ishlar bolalarda milliy cholg'ularida ijro etish san'atga muhabbat uyg'otib, ularda an'anaviy cholg'ular ijrochiligi kabi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi, shuningdek musiqa san'ati asosida milliy cholg'ular ijrochiligi yo'nalishida o'quvchi shaxsining ma'naviy, ahloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirib, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi va navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat

ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari va xususiyatlarini o'rganish o'quvchilarni o'qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini to'g'ri belgilashning eng muhim shartidir. Mana shu ishning hozirgi mavjud shakllaridan biri yosh mutaxassis shaxsining xususiyatlarini gavdalantirishdir. Bo'lajak mutaxassisning mukammal qiyofasida, jamiyatning mana shunday mutaxassislarga ehtiyoji yaqqol ko'rindi, binobarin, mazkur qiyofaning o'zi oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya jarayonini, o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi tarkibini tashkil qilish va rivojlantirish dasturi bo'lishi maqsadga muvofikdir.

Har bir kasb o'ziga xos muhim sifatlariga ega bo'lishni talab qiladi. Mana shunday sifatlarni belgilash – o'quvchi-yoshlar shaxsini shakllantirishning muayyan maqsadlarini belgilash hisoblanadi.

Pedagogik nazariyani, tajribalami anglamay turib, zamonaviy o'qituvchi tayyorlashdagi mavjud amaliyotni tahlil qilmay va umumlashtirmay turib bu soha o'qituvchisining qiyofasini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ana shu qiyofa mutaxassisga qo'yiladigan talablarning muayyan tizimi sifatida namoyon bo'lib, bo'lajak mutaxassislik fani o'qituvchisi shaxsini shakllantirishning dasturi va yo'llarini takomillashtirish imkonini beradi. San'atni idrok etish, his qilish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi, estetik va musiqiy didm o'stiradi, aqliy kamolotni, ijodiy faollilikni, tafakkurni, o'quvchilarda o'ziga xos xususiyatlami kuchaytirad: fikr doirasini kengaytiradi, zarur musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi, bo'sh vaqt muammosini hal qilishda yordam beradi. O'qituvchi uchun zarur bo'lgan mahoratni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun pedagoglik, artistlikvamusiqachilik qobiliyatları uyg'unlikda bo'lishi zarur. U o'z fanini sevishi, unga ishtiyoq bilan yondashishi, o'quvchilarni yaxshi ko'rishi, musiqa san'ati vositalari bilan o'qitish va tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi lozim. O'z kasbi bilan bir qatorda o'quvchilarni ham sevadigan o'qituvchi - barkamol o'qituvchi bo'ladi. toptirishdir.

Pedagog o'quvchining nimalarga qiziqishi, nimalarni o'qishi va yaxshi ko'rishini, uyidagi sharoiti, oilasidagi munosabatlari va hokazolarini bilishi lozim. Mana shularni bilib olish maqsadida o'tkaziladigan suhbatlar beixtiyor boshlanishi va qiziqarli hamda ishonarli tarzda borishi, shu suhbatlar natijasida o'quvchi aytayotgan narsalarga

o'qituvchi haqiqatan qiziqayotganini, suhbatlarni faqat o'zining majburiyati sifatida o'tkazmayotganini tushunib yetishi lozim. Har qanday pedagog uchun maxsus qobiliyatlar ham zarurki, ularsiz tegishli pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi. Musiqa o'qituvchisi uchun esa, musiqiy qobiliyatlar juda muhimdir. Bunday qobiliyatlar majmui ancha keng va murakkab bo'ladi. Musiqiy-pedagogik faoliyatning xususiyati uning tarkibiy qismlari qatorida badiiy-obrazli komponentning mavjudligidan iborat bo'lib, bu komponent musiqa o'qituvchisi faoliyatining umumiyligida mustaqil kategoriya hisoblanadi. Yakka tartibda mashg'ulot olib borish sinfining barcha ishlari har xil uslub, janr va shakllardagi musiqa asarlarini o'rganishda amalga oshadi. O'qituvchi o'z shogirdiga asarlarning xususiyatlarini anglab olishni, asarda yashiringan mazmun va g'oyani tushunishni, musiqiy tilning mohiyatiga kirib borishni, ishning usul va yo'llarini o'zlashtirishni o'rgatishi kerak. Bularning hammasi musiqa ijro etish ehtiyojini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi. Mana shu oxirgi maqsadga erishish uchun o'qituvchining o'zi musiqani astoydil va behad sevishi, o'zidagi ishtiyoqi hamda tajribani boshqalarga berishga intilishi zarur. Lekin buning uchun u yetarli darajada sezgir bo'lishi va o'z sinfida bir necha marta o'rganilgan asar ustida har safar ishslashda o'quvchilar bilan birgalikda yangi talqin vujudga kelgandek his qilishi kerak. O'qituvchi o'rganilayotgan asarlarni o'quvchilarga aniq misollar orqali tushuntirish va ko'rsatish uchun avvalo o'zi keng hamda har tomonlama ma'lumotli bo'lishi shart.

Musiqa asarlari ustida ishslashda yuqoridaq asosiy vazifalarni amalga oshirish uchun muayyan usul va vositalami qo'llash zarur. Shulardan biri - asarlar ustida bosqichma-bosqich ishslashdir. Bu bosqicililar shartli bo'lib, u har bir ijrochida turlichalar kechadi. Bosqichma-bosqich ishslash o'quvchilarga asarning musiqiy tilini sinchiklab va asta-sekin o'rganish, ishdagi qiyinchiliklarni qunt bilan yengish hamda badiiy talqinni yaratish imkonini beradi. Nota matni bilan dastlabki tanishish uni o'qishdan, tushunib olishdan va ilk tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Bu ish o'quvchi p'yesaning xaraktetini his etishi, asosiy mazmunini anglab olishi, unda uchraydigan qiyinchiliklarga, ifoda jihatlariga e'tibor berishi uchun zarurdir. Cholg'usiz ishslashning afzalligi shuki, unda o'quvchining diqqati texnik qiyinchiliklarga bo'linmaydi, ayni paytda musiqachining ichki eshitishi musiqiy obrazlarni anglash, muayyan emotsiyonal holatni boshdan

kechirish, asardagi tovushlarning boyligini o'ylab ko'rish imkonini beradi. Ammo matn ustida olib boriladigan mana shunday fikrlash, eshitish har bir o'quvchiga ham to'g'ri kelavermaydi. Ichki eshitish qobiliyati yetarli darajada rivojlanmagan o'quvchilar bilan shug'ullanishda asar ustida ishslashni cholg'u asbobidan boshlashga to'g'ri keladi. Shunga qaramay, o'quvchining ichki eshitishni, tafakkurini faollashtiradigan usullardan doimiy ravishda foydalanish, musiqiy asosni eshitib o'zlashtirish orqaligina asarning badiiy tilini tushunish mumkinligini unutmaslik kerak. Qismlar bo'yicha ishslash yirik asarlarni yaxlit chalishni mutlaqo inkor etmaydi. Aksincha, asar yaxlitligi haqidagi tasavvurni unutmaslik uchun p'yesani boshidan oxirigacha tez-tez takrorlab borish zarur. Lekin ishning keyingi bosqichlai barcha detallar bajarilib, murakkab qismlar alohida chalingach, tovushning kerakli koloriti topiladi, shularning hammasini umumiyligi to'qimaga birikib chalishni takrorlash ko'proq foydali bo'ladi. Qismlar bo'yicha ishslashda tuzatishlar bu chalishning turli variantlaridan foydalanish mumkin, noaniq ijro etilganda xato tuzatiladi va o'sha qismlar takroran o'rganiladi; eng qiyin va noqulay joyi to'xtab yoki sekinlab o'tiladi va hokazo. Bularni o'rganish mezoniga qarab, bo'laklarni asta-sekin yiriklashtirishga o'tiladi. Eng avval ye bo'laklar yiriklashtiriladi, keyin ularga yonc murakkab epizodlar biriktiriladi. Fikrlash ishlari doimo bevosita ijro etishdan oldin amalga oshirilishi va faqat dastlabki tahlildan bo'lib qolmay, u tovush cluqarish usullari, bannoq yuritish, tovushlar ohangdoshligi, frazirovka hokazolar haqida o'ylab ko'rishni ham o'z ichiga kerak Bo'laklar bo'yicha ishslashda hech qachon o'quvchilar oldiga sof hunarmandlik vazifalami (shtrixlar, ritmika, applikatura va hokazolarni) qo'ymaslik kerak. Ifoda vositalari va usullarini izlash esa doimo badiiy obrazning eng yaxshi talqinini qidirish bilan qo'shib olib borilishi va asar mazmunining ohangdorligi, tushunarligi hamda emotsiyaligini to'laligi vazifalari bilan belgilanishi lozim. Asar bo'laklar bo'yicha o'rganilgach, yaxlit ijroni yaratish, uni oxirgi sur'atga yetkazish jarayoni boshlanadi. Haqiqiy sur'atga yaqinlashganda shaklni rivojlantirish va aniqlash masalalari katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa vaqt oralig'ida ijro etiladigan san'at ekanligi sababli o'quvchining diqqati qismlaring sur'at va dinamik jihatdan muvofiqligiga, eng yuqori nuqtalarining ijrosiga, sur'atdan og'ishlarga va oldingi sur'atga qaytishlarga, pauzalaming aniq ijro etilishi va hokazolarga qaratilishi kerak. O'quvchi

asarni ijro qilish rejasini yaqqol tasavvur etishi, uni ijro qilishning qandaydir ixcham “majmuasi”ga ega bo’lishi, iboralarning, jumlalar va qismlarning tuzilishini ongli ravishda sezal olishi, alohida qismlardagi, shuningdek, butun asardagi ohang nuqtalarini, avjlari ichdan eshita bilishi kerak. Mana shu jarayonda o’quvchi o’z ijrosini doimo eshitishi va uni baholash qobiliyati katta rol o’ynaydi. Bunda o’quvchi chalishni uddalay olmayotganini izohlab qolmay, o’z kamchiliklarining sabablarini va ularni bartaraf etish yo’llarini ham bilishi muhimdir. Buning uchun u musiqaning qiyin bo’laklari ustida alohida ishlay olishi va o’z oldiga doimo yangi vazifalami qo’yib borishi kerak. Ana shu tariqa goh ayrim qo’l bilan, goh ovozlar bo’yicha ishlash, qiyin joylarni ajratish ijroning ba’zan tovush jihatiga va ba’zan ritmik tuzilishiga e’tibor berish zarurati kelib chiqadi.

Bu borada xalq cholg’ulardan rubob prima va g’ijjak cholg’usida o’quvchining ijro mahoratini shakllantirish maqsadida texnik mashqlardan foydalanish va uni mustahkamlashda uy vazifasi sifatida tovushlarni har xil oktavalarda aniqlash bo’yicha qator vazifalar berish mumkin. O’quvchini asbobni chalishga o’rgatishdan avval uni cholg’u oldida to’g’ri, qulay va erkin o’tqazish kerak. Bunda bolaning bukchaymasligi yoki zo’riqib o’tirmasligiga, ijro vaqtida yelkalarini ko’tarmasligiga e’tibor berish muhimdir. Tirsaklarni tanaga juda yaqin tutish ham, tashqariga qaratib burish ham ma’qul emas. Ijro erkinligiga erishishda oyoqlarining yaxshi tayanch bo’lishi katta ahamiyatga ega. Rubob prima va g’ijjak cholg’ularida ilk texnik mashqlarni bajarish vaqtida o’quvchining e’tiborini tovush sifatiga qaratish lozim. Boshlang’ich ijrochilikda texnik mashqlar bilan ish olib borishda gammalar,akkordlardan foydalanish ijro sifatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Tovush kuychan va uzoq sadolanib turishi kerak. Shu bilan birga, rangsiz, qo’pol, taqillagan tovushdan qochish lozim. Shuni ta’kidlash kerakki, ovoz chiqarish ko’nikmalari ustida ishlash uslubiyotida ovoz masalasini to’g’ri hal etish muhimdir. Bunday yondashuv o’quvchida badiiy maqsad va cholg’u vositalarining o’zaro munosabatini to’g’ri tushunishga o’rgatadi. O’quvchi bilan texnik mashqlar ustida ish olib borish jarayonida ovoz ustida ishlashda o’qituvchi bir necha kuychan sadolanadigan tovushlarni chalib, o’quvchi bu tovushlarni e’tibor bilan eshitib ko’rishini taklif qilish kerak. So’ngra o’quvchi xuddi shu tovushlarni ko’rsatilganidek chalib ko’rsin. Bunda o’qituvchi chalib ko’rsatgan tovushlar bilan o’quvchi o’zi chalib

ko'rgan tovushlar orasidagi farqni sezib, kerakli natijaga erishish uchun haraqat qilishi muhimdir. Bu izlanishlar o'z ustida mustaqil ishlay olish ko'nikmasini beradi.

Pedagogik jarayonning eng mas'uliyatli bosqichlaridan biri o'quvchining imkoniyatidan kelib chiqib va iste'dodini nazarda tutgan holda shaxsiy ish rejasini to'g'ri tuzib olishdan iborat. O'quvchiga foyda beradigan ijro dasturini tanlash rivojlanishning garovidir. Yoki aksincha, o'quvchi imkoniyatiga mos kelmaydigan ijro dasturini tanlash salbiy natijalarga olib keladi. Shu bois o'quvchi imkoniyati doirasini hisobga olib dastur tanlash pedagogik jarayonning muhim tomonlaridir. Demak o'quvchining shaxsiy ish rejasini bir maromda tuzish va natijalami qayd etib borish lozim. Chunki shaxsiy rejaning o'zi uning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi. U, albatta, muayyan o'quvchining tarbiyasiga, bilim saviyasining tobora oshib borishiga asoslanishi lozim. Bolaning boshlang'ich badiiy tarbiyasi maxsus bilim talab etuvchi mas'uliyatli va murakkab ish hisoblanadi. San'atdan olingan ilk taassurotlar o'quvchining musiqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xatto ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan xatolar ham bunda noxush vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Ilk darslardan boshlab bolani san'at bilan tanishtirish musiqiy tovushga e'tibor bilan qu'loq solish. uning mazmun va tuzilishini anglash, yangrash sifatini aniqlashni o'rgatish zarur. O'quvchining eshitish tarbiyasi badiiy, shu bilan birga, bola uchun tushunarli va qiziqarli material asosida amalga oshirilishi kerak. Shu maqsadda o'quvchi bilan texnik mashqlar bilan ish oilb borishni qo'llash afzaldir. Ushbu musiqiy material boshlang'ich davr uchun mo'ljallangan turli xil texnik mashqlar to'plamlaridan olinishi mumkm. Texnik mashqlarni har dars boshida ijro etish maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, bolada mashg'ulotlarga nisbatan qiziqish uyg'onib, asarlarning musiqiy mazmuni yanada aniqlashadi. Xususan, ijrochilik san'atida musiqa bilan shug'ullanish badiiy anglash faoliyati bo'lib, bir qator omillami o'z ichiga oladi. U g'oyaviy e'tiqodni shakllantiradi, ahloqiy jihatdan tarbiyalaydi, shaxsdagi qiziqishlaming psixologik maqsadi va yo'nalishini belgilaydi, ijtimoiy kayfiyatni vujudga keltiradi, tashkil etadi va birlashtiradi, ijtimoiy faollikni tarbiyalaydi. Texnik mashqlarini muntazam ravishda ijro etib borish san'atni idrok etish, his qilish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi, estetik va musiqiy didni o'stiradi, aqliy kamolotni, ijodiy faollikni, tafakkurni,

o'quvchilarda o'ziga xos xususiyatlarini kuchaytiradi, fikr doirasini kengaytiradi, zarur musiqiy bilim va ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, barcha muammoni hal qilishda yordam beradi Har bir musiqa asarida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va mazmun bo'lishi haqida o'quvchiga hayotiy misollarga tayangan holda tushuncha berib boriladi. Bu esa sekin-asta musiqiy taassurotlar va tinglash tajribalarini rivojlantiradi. Bunda o'quvchi mazkur dastur orqali nota yozuvini o'zlashtirishda muammoga duch kelmaydilar. Darslarida mavzuga oid tinglash uchun asarlarning audio va video variantlaridan foydalanishlari mumkin

Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yhati.

- 1.Barenboym L.A. "Yosh ijrochi shaxsning shakllanishi haqida". M.,1969
2. Sh.Umarov. "Musiqa cholg'ularini o'rghanish". Toshkent 2018
- 3.Nazaykinskiy E." Musiqiy tarbiya psixologiyasi" M.,1972